

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA TA'LIM JARAYONINI  
MODERNIZASIYALASH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING  
INNOVATSION TEKNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING  
MAVJUD HOLATI**

**B.U.Normo'minov**

*SamDChTI gumanitar fanlar va axborot  
texnologiyalari kafedrasi assistent o'qituvchisi  
E-mail: normuminovbahodir1@gmail.com*

**Sadilloyeva Toliba Bahrilloyevna**

*Xorijiy til adabiyoti kechki 21.19 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta'lif muassasalarida talabalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'qitish ahamiyati ko'rsatilgan. Zamonaviy yondoshuvlar asosida ta'lif sifatini oshirish yo'llari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** modernizasiya, pedagogik texnologiya, innovatsiya, ta'lif sifati, kasbiy bilim va b.

**Annotation:** This article highlights the importance of teaching students in higher education using modern pedagogical technologies. Ways to improve the quality of education based on modern approaches are described.

**Keywords:** modernization, pedagogical technologies, innovation, quality of education, professional knowledge, etc.

**Annotatsiya:** В статье подчеркивается важность обучения студентов высших учебных заведений с использованием современных педагогических технологий. Описаны пути повышения качества образования на основе современных подходов.

**Ключевые слова:** модернизация, педагогические технологии, инновации, качество образования, профессиональные знания и др.

O'zbekistonda ta'lif-tarbiya sohasini isloq qilishning asosiy omillaridan biri "shaxs manfaati va ta'lif ustuvorligi"dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab bergenligi tufayli ta'lifning yangi modeli yaratildi.

Pedagogik texnologiya (PT) - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3-ming yillikda davlatimiz ta'lif sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangihanadi, o'quvchi yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehrmuhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi

Ma'lumotlilik asosida yotuvchi bosh g'oya ham tabiat va inson uzviyligini anglab etadigan, avtoritar va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan, sabrbardoshli, qanoatli, o'zgalar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi

shaxs sifatlarini shakllantirishni ko‘zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Bu masalaning echimi qaysi darajada ta’limni texnologiyalashtirish bilan bog‘liq?

Dastlab “texnologiya” tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so‘z texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan - “texnos” (techne) - san’at, hunar va “logos” (logos) - fan so‘zlaridan tashkil topib “hunar fani” ma’nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to‘liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko‘zda tutadi.

Hozirgi kunda o‘qituvchilar metodikani ko‘p hollarda texnologiyadan ajrata olmayaptilar. SHu boisdan bu tushunchalarni aniqlashtirish kerak bo‘ladi. Metodika o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar majmuasidan iborat. Metodikadan ko‘zlangan maqsad predmet mavzulariga oid nazariyalarni aniq hodisalar tekisligiga ko‘chirishdir. Misol uchun, gaz qonunlarini tushunchalarini shakllantirish metodikasi yoki energiyaning saqlanish qonunini fizika kursining elektr bo‘limida qo‘llash metodikasi va h.k.

Mustaqillikni qo‘lga kiritgan va buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo‘l uzoq hizmat qila olmaydi. Chunki:

**birinchidan:** ma’lum sabablarga ko‘ra jahon hamjamiyati taraqqiyotdan ortda qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishi uchun, aholi ta’limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg‘or pedagogik tadbirlaridan foydalanish zarurligi:

**ikkinchidan:** an‘anaviy o‘qitish tizimi yozma va og‘zaki so‘zlarga tayanib ish ko‘rishi tufayli “Axborotli o‘qitish” sifatida tavsiflanib, o‘qituvchi faoliyati birgina o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi:

**uchinchidan:** fan-texnika taraqqiyot darajasininig yuqoriligi natijasida axborotlarning keskin ko‘payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi:

**to‘rtinchidan:** kishilik jamiyati o‘z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkoridan tobora foydali natijaga ega bo‘lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkoriga o‘tib borayotganligi:

**beshinchidan:** yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg‘or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa yondoshuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir.

Pedagogika o‘quv yurtlarida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion ta’lim texnologiyalarni qo‘llashda quyidagi: ta’lim-tarbiya jarayonini talaba shaxsiga yo‘naltirish, ularni shaxs sifatida barkamolligini ta’minalash, DTS (davlat ta’lim standarti) bilan me’yorlangan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash

samaradorligini orttirish; pedagogik kadrlarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, ayniqsa, metodik tayyorgarligi samaradorligini orttirish, innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash; bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni innovatsion ta’lim texnologiyalariga asoslangan mashg‘ulotlarda faol ishtirokini ta’minalash natijasida ularni ta’lim-tarbiya jarayoni sub’ektiga aylantirish orqali, kelgusidagi pedagogik faoliyatida innovatsion texnologiyalarning o‘rnini anglash, ulardan foydalanish uchun zarur bo‘ladigan metodik bilim, ko‘nikma va malakalarini egallahsga zamin yaratish kabi didaktik maqsadlarni amalga oshirish nazarda tutildi.

Ta’lim o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash o‘z oldida quyidagilarni vazifa qilib qo‘yadi:

1. Ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalarni joriy etish zaruratini o‘rganish;
2. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va maqbul texnologiyalarni tanlash;
3. Innovatsion ta’lim texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tadbiq etishning zaruriy shartlarini belgilash;
4. Innovatsion ta’lim texnologiyalari turlari va shakllarini ta’lim jarayoniga fan xususiyatidan kelib chiqqan holda qo‘llash va foydalanish holatini tahlil qilish;

Mamlakatimizdagи zamonaviy ta’lim tizimini o‘zining milliy an’analarga tayanganligi bilan boshqa rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimidан tubdan farq qiladi. Bu faqat ta’lim darajalari, sifati, mazmuni, holatiga ko‘ra aniqlanadi.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda ta’lim mazmunini isloh qilish, boyitish, muntazam yangilab borish sohasida sezilarli o‘zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. Bugungi kunga kelib, yangi pedagogik nuqtai nazarlar asosida ta’lim muassasalarida qator o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu ta’lim mazmuni, tarkibiy tuzilishi va texnologiyalarni takomillashtirish bilan bog‘liq o‘zgarishlardir. Shu ma’noda ta’lim jarayoni jamiyat va Davlat talablari asosida yangilanmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasb tayyorgarligini kuchaytirish, mutaxassislik va ixtisoslikka doir fanlarni chuqur o‘rganish orqali o‘quvchi-talabalar bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mavzusini amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish masalasiga e’tibor kuchaydi.

O‘qituvchi dars jarayonida o‘qitayotgan fan dasturi bo‘yicha yangi ilmiy bilimlarni berib, o‘quv jarayoninini reja asosida, boshqarib borish bilan birga dars maboynda o‘quvchilarning bilimlarini o‘zlashtirish darajasini tekshirib, nazorat qilib boradi va o‘qish davomidagi bilim va ko‘nikmasini, fikrlash qobiliyatini, olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash malakasini shakllantiradi.

Ishning birinchi paragrafida ta’lim sifati natijalarini baholash pedagogik muammo ekanligi, ta’lim jarayonini modernizasiyalashda ta’lim sifati, bilim sifatini aniqlashdagi yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etishning

pedagogik imkoniyatlari o‘rganildi.

Hozirgi kunda o‘quvchi-talabalarining ta’lim sifatini ya’ni bilim va ko‘nikmalarni baholash hamda nazorat qilishda ayrim o‘qituvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan bir qator kamchiliklar o‘rganildi. Bularga

- O‘qituvchilarning o‘quvchi-talabalar bilimini baholashga oid ma’lumotlarning yetarli emasligi;
- nazorat qilishda muayan tartibning yo‘qligi;
- nazorat qilishning shakil, metod va vositalarini bilmasliklari;
- nazorat shakl va metodlardan rasional foydalanmasligi;
- baholash metodlariga rioya qilmasliklari;
- nazoratning aksariyat hollarda didaktik maqsadga yo‘naltirilmaganligi;
- predmetni o‘qitishda foydalanilayotgan materialning o‘ziga xos xususiyatlari, auditoriyada ishlash sharoitlari e’tibordan chetda qoldirilishi singari kamchiliklar aniqlanib bartaraf etish chora-tadbirlari bayon etildi.

Jamiyatning hamma jabhalaridagi “Modernizasiyalash” jarayoni ta’lim jarayoniga ham ta’luqlidir. Ayniqsa o‘quvchi-talabalarning bilimini baholashni hozirgi davr talablariga mutanosib ravishda isloh qilish davr talabidir. Shunday ekan ta’lim sifati natijalarini modrenizasiyalash orqali bu muammolarni amaliy yechimini hal qilish mumkin. Respublikamizda ta’lim mazmunining baholash jarayonini modernizasiyalash bugungi kun talablaridan biridir. Ta’lim mazmunini modernizasiyalash o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish tizimini ham modernizasiyalashni taqazo qiladi. Ta’limni bozor munosabatlari talablari asosida modernizasiyalash hozirgi kunda juda muhimdir.

Ta’lim sifati va ta’lim samaradorligi jamiyatda hayot sifatini ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat umumiy va kasbiy ta’limga qanchalik ko‘p mablag‘ sarflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, hayot sifati shunchalik yuqori bo‘ladi. Ta’lim samaradorligini belgilashda eng optimal xarajatlar hisobida yuqori ta’lim sifatiga erishish talab etiladi.

Ta’lim oluvchilar esa interfaol usul qo‘llanilgan o‘quv jarayoni natijasida quyidagilarga erishadilar:

- 1) xotiraga qabul qiladilar, anglaydilar, yig\_adilar, biroq xatosiz, ongli ravishda qayta tiklamaydilar;
- 2) bevosita ta’lim beruvchi boshchiligidagi tahlil qiladilar, taqqoslaysidilar, umumlashtiradilar, namuna bo\_yicha amaliy harakatlarni bajaradilar;
- 3) muammolarni yechish jarayonida mustaqil izlanadilar, kutilayotgan natijaga erishishning yo‘l va vositalarini mustaqil ravishda aniqlaydilar. Interfaollik darajasi qanchalik yuqori bo\_lsa, ta’lim berish jarayoni shuncha natijali bo\_ladi.

O‘qitishning interfaol usullarini bilish kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo\_lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalg qilingan va

biladigan, o‘ylayotgan narsalarini tushuntirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar qo\_ llanilgan darslarda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi pedagogik hamkorlik o‘quvchini dars davomida befarq bo‘lmashlikka, mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga olib keladi, fanga bo‘lgan qiziqishlari doimiyligini ta‘minlaydi. Bu holat dars unumdorligini oshirishi va o‘quvchiga samarali bilim berishga olib keladi. Umumiy ma‘noda darslar jarayonlarda turli xil metodlardan foydalananib o‘qitish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlikdagi o‘quv faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish amalga oshirilayotgan ishlarning yanada samarador bo‘lishiga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: «Moliya», 2003. 176 b.
2. Sayidahmedov N.S., Ochilov A. YAngi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T., O‘z R XTV, Respublika ta’lim markazi, 1999 . - 55 b.
3. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Mirsolieva M. “Pedagogik mahorat” fanidan o‘quv-metodik majmua.Nizomiy nomidagi TDPU, 2011.
4. Haydarova O. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ta’lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash. – T.: 2004.

**Internet saytlari:**

1. <http://www.pedagog.uz>
2. <http://www.ziyonet.uz>